

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI TOMONIDAN
RO'YXATGA OLINGAN
02.03.2000 y.
N 905**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MARKAZIY BANKI TOMONIDAN
TASDIQLANGAN
22.02.2000 y.
N 429**

Mazkur Nizom rus tilida tasdiqlangan.
Hujjatning matni Norma gazetasi va axborot-qidiruv tizimi ekspertlari tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan va axborot tusiga ega. Noaniqliklar kelib chiqqanida me'yoriy-huquqiy hujjatning rus tilidagi matniga qarang.

**Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan
qo'yiladigan talablar to'g'risida
NIZOM
(Yangi tahrirda)**

Mazkur Nizomga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan
AV 28.05.2005 y. 905-1-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori,
AV 06.09.2006 y. 905-2-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori,
AV 08.11.2010 y. 905-3-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori,
AV 02.05.2018 y. 905-4-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori,
AV 14.05.2019 y. 905-5-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori,
AV 29.08.2019 y. 905-6-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori

1. Umumiy qoidalar
 2. Kredit siyosati mazmuni
- Ilova. Iste'mol kreditlari va qarzlarning to'liq qiymatini hisoblash Tartibi

Mazkur Nizom "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, u tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Bankning kredit siyosati - kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi

hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart.

1.2. Tijorat banklari kredit siyosati alohida hujjat sifatida ishlab chiqariladi va bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

1.3. Har bir bank o'z kredit siyosatini ishlab chiqishi va amalga joriy etishi lozim. Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank Kengashi va Boshqaruvi a'zolari, bankning boshqa mansabdor shaxslariga yuklatiladi.

1.4. Kredit siyosatining tavsifi kredit portfelining tarkibiga, bank o'z faoliyatini amalga oshirayotgan hududning iqtisodiyotiga qarab aniqlanadi. Kredit strategiyasini shakllantirishda va tegishli kredit siyosatini tayyorlashda, bank ushbu omillarni hisobga olishi shart.

1.5. Bankning kredit siyosati bank Kengashi tomonidan yiliga kamida bir marta tegishli yilning 1 fevraligacha bo'lgan muddatda qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Yil davomida zaruratga ko'ra kredit siyosatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Agar kredit siyosatining aksariyat qismiga (50 foizdan kam bo'lmagan) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilayotgan bo'lsa, bunda kredit siyosatini yangi tahrirda qabul qilish maqsadga muvofiq.

(AV 29.08.2019 y. 905-6-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori tahriridagi band) (Oldingi tahririga qarang)

1.5-1. Bankning kredit siyosati, unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar yoki uning yangi tahriri bank Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

Bank Kengashi tomonidan bankning kredit siyosatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zaruriyati mavjud emasligi to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 15 kun ichida Markaziy bankka Kengashning majlis bayonidan ko'chirma taqdim etiladi.

(AV 29.08.2019 y. 905-6-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq kiritilgan band)

1.6. Kredit siyosati kredit (mikroqarz) berish to'g'risida qaror qabul qilishning bosqichma-bosqich jarayonini va kredit (mikroqarz) berish to'g'risida xabardor qilish yoki uni berishni asoslantirilgan holda rad etish tartibini ko'rsatgan holda kredit buyurtmalarini shaffoflik asosida ro'yxatdan o'tkazish va ko'rib chiqish tartibini o'z ichiga olishi kerak. (AV 02.05.2018 y. 905-4-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq kiritilgan band)

2. KREDIT SIYOSATI MAZMUNI

- 2.1. Kredit siyosatining maqsadi va strategiyasi
- 2.2. Vakolatlar darajasi va mas'uliyatni taqsimlash
- 2.3. Kredit turlari
- 2.4. Kreditlarning to'planishi
- 2.5. Kreditlarni to'lash
- 2.6. Qarzdorlarga doir moliyaviy axborot
- 2.7. Garov ta'minotiga nisbatan qo'yiladigan talablar
- 2.8. Kredit monitoringiga nisbatan qo'yiladigan talablar
- 2.9. Foiz stavkalari

- 2.10. Bog'liq shaxslar bilan bajariladigan operatsiyalar
- 2.11. Ko'zda tutilmagan holatlar moddalari
(balansdan tashqari moddalar)
- 2.12. Kredit portfelini audit qilish
- 2.13. Bank Boshqaruvi va Kengashiga taqdim etiladigan hisobotlar

Kredit siyosati bank faoliyati turlariga qarab mazmuni va tuzilmasi jihatidan farq qiladi. Mazkur bo'lim bank maqomi va u joylashgan manzildan qat'i nazar kredit siyosatida aks ettirilishi lozim bo'lgan umumiy masalalar ro'yxatini belgilab beradi.

Bunda kredit siyosatining yo'nalishlarida berilayotgan kreditlarning hajmi va shakli, qisqa va uzoq muddatli kreditlar o'rtasidagi nisbat, moliyaviy axborotlarni tahlil etish jarayoni, kredit portfeli hamda mablag'larning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar aks ettirilishi lozim.

2.1. Kredit siyosatining maqsadi va strategiyasi

Har qanday kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo'ladi: uzoq muddatli investitsiyalardan aksiyadorlarga yuqori daromad kelishini ta'minlash, likvidlikni saqlab turish, tavakkalchilikni diversifikatsiya qilish, siyosat va tadbirlar birligini kafolatlash, qonunlar va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, hududning kreditlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

Kreditlashning strategik yo'nalishlari bank Kengashi tomonidan belgilanadi va tasdiqlanadi.

2.2. Vakolatlar darajasi va mas'uliyatni taqsimlash

(AV 02.05.2018 y. 905-4-son bilan ro'yxatga olingan
MB Boshqaruvining Qarori tahriridagi band)
(Oldingi tahririga qarang)

Kredit siyosatida kredit ajratishda filiallar tomonidan mustaqil qarorlar qabul qilishda kreditlashning limitlarini belgilash me'zonlarini ko'rsatgan holda bosh bank va uning filiallari o'rtasida javobgarlikning aniq chegaralari aks ettirilishi lozim.

Kreditlash uchun mas'ul bo'lgan barcha shaxslar vakolatlari kredit siyosatida qayd etilishi lozim.

Kredit qo'mitasi majlislari va uning bank boshqaruvi organlari oldida hisobot berishi davriyligi ham kredit siyosatida belgilab qo'yilishi kerak.

2.3. Kredit turlari

Kredit siyosati bank tomonidan beriladigan kreditlar toifasi va turlarini aniqlashi va belgilashi lozim. Masalan, kreditlash sohalari bo'yicha: tijorat faoliyati, sanoat, qishloq xo'jaligi, kapital qo'yilmalarni moliyalash va b. Kredit turlari bo'yicha: "kredit liniyalarini ochib va ochmay" kreditlash, lombard va veksel kreditlari va b.

Kredit siyosatida maxsus ssudalarni berish direktiv tamoyillari aniq ifodalangan holda mazkur bank uchun mos kelmaydi yoki maqbul bo'lmaydi, deb hisoblanuvchi kredit turlari va toifalari ham ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Kredit siyosati banklarga taqiqlovchi quyidagi qoidalarni o'z ichiga olishi kerak: (AV 29.08.2019 y. 905-6-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq kiritilgan xatboshi)

jismoniy shaxslarga xorijiy valyutada kreditlar (qarzar) berish va kreditlar (qarzar) bo'yicha ularning majburiyatlarini xorijiy valyutada hisobga olish; (AV 29.08.2019 y. 905-6-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq kiritilgan xatboshi)

ilgari olingan kreditlar (qarzar) bo'yicha so'ndirilmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lgan taqdirda jismoniy shaxslarga yangi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish. (AV 29.08.2019 y. 905-6-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq kiritilgan xatboshi)

2.4. Kreditlarning to'planishi

(AV 02.05.2018 y. 905-4-son bilan ro'yxatga olingan
MB Boshqaruvining Qarori tahriridagi band)
(Oldingi tahririga qarang)

Kredit siyosati kreditlar va mikroqarzlarning to'planishi darajasi, shu jumladan kredit turlari, iqtisodiyot tarmoqlari, geografik hududlar va boshqalar bo'yicha to'planishi darajasi monitoringi bo'yicha talablarni o'z ichiga olishi zarur. Kredit siyosatida rahbariyatga muntazam ravishda topshiriladigan tegishli hisobotlarni tayyorlashga doir talablar belgilanishi lozim.

2.5. Kreditlarni to'lash

Kreditni to'lash muddati uni to'lashning birlamchi va ikkilamchi manbalarini sinchiklab baholash asosida belgilanishi kerak. Kredit siyosat rahbariyat nuqtai nazaridan har xil toifa va turdagi kreditlarni to'lashning ma'qul dasturlaridan iborat bo'lishi zarur.

Kredit siyosati kreditlar berishning maksimal muddatlarini belgilashi lozim. Ushbu siyosat shuningdek kreditning asosiy summasini kredit to'lash muddatining so'ngida va kredit to'lashning boshlang'ich muddati uzaytirilayotganda qaytariladigan kredit turlarini berish tartibini ham o'z ichiga olishi kerak.

Kredit siyosati to'lovlarni o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, mablag'larning qaytarilishi va berilgan kreditlar bo'yicha qarzdorlikni undirib olish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak.

2.6. Qarzdorlarga doir moliyaviy axborot

Bank kredit siyosati kredit berish bosqichida ham, keyingi monitoring bosqichlarida ham jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olishi kerak. Moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazish, naqd pul oqimi va boshqa ma'lumotlar bo'yicha hisobotlarni taqdim etish yuzasidan qo'yiladigan talablar aniq ifodalanishi zarur. Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, banklar talab qiladigan ma'lumotlar Milliy Buxgalterlik Hisobi Standartlariga (MBHS) muvofiq taqdim etilishi kerak.

Kredit siyosatida potensial qarzdorlarning kredit qobiliyatini (likvidlik, qoplanish, muxtorlik koeffitsiyentlari, kapitallashtirish darajasi, garov ta'minoti ekspertizasi va b.) aniqlash uchun ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish tadbirlari batafsil yoritilishi lozim. Bank qarzdorlarning kredit qobiliyati mezonlari va ularni baholash metodikasini aniq belgilab olishi kerak.

Bundan tashqari, kredit siyosati qarzdorlar tomonidan biznes rejaga buyurtmalar portfelining tuzilishi va bank kreditidan foydalangan holda ko'rsatiladigan xizmatlar, ishlab chiqariladigan tovarlarni sotish bozorining mavjudligini kiritish bo'yicha talabni o'z ichiga olishi kerak. (AV 28.05.2005 y. 905-1-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori tahriridagi xatboshi)

2.7. Garov ta'minotiga nisbatan qo'yiladigan talablar

Kredit siyosati muayan turdagi qimmatliklar (ko'chmas mulk, avtomobillar va b.) garovi asosida beriladigan ssudalarning maksimal miqdori limitlarini o'z ichiga olishi hamda ta'minlangan ssudalarning har bir turi uchun kredit hujjatlari to'plamini rasmiylashtirish tadbirlarini belgilashi lozim. Bank kredit siyosatida garov kreditlashning uni berish vaqtidayoq kreditni to'lash manbasi (naqd pul yoki davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (xazina veksellari) bilan ta'minlangan kreditlar bundan mustasno) hisoblangan yagona asosi bo'lmasligi belgilab qo'yilishi zarur.

Kredit siyosati garovga olingan mulk turiga qarab garov mavzuiga nisbatan qo'yiladigan talablar va kreditning garov qiymatiga nisbatini o'z ichiga olishi kerak. Mazkur bandda garov mavzui sinchiklab baholanishi va uning bozor qiymati uni sotish lozim bo'lgan paytda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar o'rnini qoplashi lozimligi aniq yoritilishi zarur.

Hujjatda garov mavzui baholovchi tashkilot va ichki bank baholovchisi tomonidan baholanadigan hollar ko'rsatib o'tilishi kerak. Turli garov toifalarini baholash uslublari batafsil aks ettirilishi lozim. Siyosat ko'chmas mulk, ishlab chiqarish jihozlari va iste'mol kreditlarini moliyalash uchun beriladigan kreditlarni to'lash hisobiga qarzdor tomonidan bo'nak to'lovlarini kiritishga doir muayan talablarni o'z ichiga olishi zarur. (AV 08.11.2010 y. 905-3-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori tahriridagi xatboshi)

Kredit siyosatida ko'rsatilishi lozimki, yer uchastkalari belgilangan tartibda garov ta'minoti sifatida bankka o'tgan hollarda, bank ushbu yer uchastkalarini unga mulk huquqi o'tgan paytdan boshlab olti oydan kechiktirmay sotishga qo'yishi kerak. (AV 06.09.2006 y. 905-2-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq kiritilgan xatboshi)

2.8. Kredit monitoringiga nisbatan qo'yiladigan talablar

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim. Kredit xodimlari kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatga xabar berishlari kerak. Qarzdor yoki garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Ssudalarning sifatini aniqlashtirish va kutilishi mumkin bo'lgan kreditlar bo'yicha yo'qotishlarga qarshi yetarli rezervlarni shakllantirish maqsadida chorakda kamida bir marotaba bankning kredit portfeli to'liq inventarizatsiyasi jarayoni bankning kredit siyosatida belgilanishi shart. (AV 08.11.2010 y. 905-3-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq kiritilgan xatboshi)

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha "to'lovsizlik" tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek bank Boshqaruvi va Kengashining tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishi lozim. Hisobotlarda ahvolning yomonlashishi, yashirin zararlar sabablari va sog'lomlashtirish rejalari batafsil bayon etiladi.

Kredit siyosat qarzlarni qaytarishga doir izchil bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilishi kerak. Raxbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

2.9. Foiz stavkalari

(AV 02.05.2018 y. 905-4-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori tahriridagi band)
(Oldingi tahririga qarang)

Kredit siyosati "kreditning to'liq qiymati" tushunchasini, shu jumladan kredit olish va xizmat ko'rsatish (qaytarish) bilan bog'liq bo'lgan barcha to'lovlar to'g'risidagi shartlar bo'yicha to'liq ma'lumotni o'z ichiga olishi zarur. Bunda, shu jumladan, resurslar qiymati, kredit bo'yicha

xizmat ko'rsatishga doir kutilayotgan xarajatlar, vositachilik haqi, ma'muriy sarflar, ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar va bank marjasi baholanishi zarur. (AV 14.05.2019 y. 905-5-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qarori tahriridagi xatboshi) (Oldingi tahririga qarang)

Jismoniy shaxslarga berilgan iste'mol kreditlari va qarzlarning to'liq qiymatini hisoblash mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq tartibda amalga oshiriladi. (AV 14.05.2019 y. 905-5-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq kiritilgan xatboshi)

AV 14.05.2019 y. 905-5-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq ikkinchi-to'rtinchi xatboshilar uchinchi-beshinchi xatboshilar deb hisoblansin

Kredit siyosati quyidagi taqiqlarni nazarda tutishi shart:

mikroqarz shartnomalari bo'yicha yillik qarz summasining yarmidan ko'p miqdorda foizlar hisoblash, komissiya va neustoyka (shtraf, pena) undirish, javobgarlikning boshqa choralari qo'llash;

kredit buyurtmalarini ko'rib chiqish, ssuda hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish, kreditlar ajratish uchun to'lovlar, shuningdek, jismoniy shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan kreditlar (mikroqarzarlar) muddatidan ilgari so'ndirilganligi uchun neustoyka undirish.

2.10. Bog'liq shaxslar bilan bajariladigan operatsiyalar

Kredit siyosati bank bilan bog'liq shaxslarga beriladigan kreditlar bo'yicha Markaziy bank talablariga muvofiq keluvchi limitlarni o'z ichiga olishi lozim.

Kredit siyosatida bank bilan bog'liq shaxslar bilan bitimlarni qisqartirish yoki ularni tuzishning har qanday imkoniyatlarini bartaraf etish maqsadida bog'liq shaxslarga beriladigan kreditlarni tasdiqlash va qayta tiklash tartibi va tadbirlari belgilab qo'yilishi kerak.

2.11. Ko'zda tutilmagan holatlar moddolari (balansdan tashqari moddalar)

Kredit siyosatida kafolatlar va akkreditivlarning maqsadi va ishlatilishi, mansabdor shaxslarning bunday majburiyatlarni chiqarishga doir vakolatlari va bunday vositalar chiqarilishi mumkin bo'lgan hollar, shuningdek ularga doir hujjatlar va hisobotlarga nisbatan qo'yiladigan talablar batafsil yoritilishi lozim.

Balansdan tashqari majburiyatlarni berishda moliyaviy hisobotlar (hujjatlar)ni taqdim etishga oid talablar kreditning istalgan boshqa turlarini berishda foydalaniladigan hujjatlar va hisobotlar bilan bir xil bo'lishi zarur. Tijorat akkreditivlari bo'yicha to'lovlarni o'tkazish, to'lov va yuk ortish hujjatlari (yuk xatlari), sug'urta polisleri hamda xalqaro andozalar va tadbirlarga muvofiq talab qilinadigan boshqa hujjatlarga nisbatan qo'yiladigan qo'shimcha talablar qayd etilishi kerak.

2.12. Kredit portfelini audit qilish

Siyosat bank kredit portfelini vaqti-vaqti bilan baholashga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar ro'yxatini belgilashi hamda kredit portfeli sifatini aniqlash va tuzatishlar minimal yuzaga keluvchi yo'qotishlar bilan kiritilishi uchun muammoli kreditlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ichki bank kredit tahlili maqsadlarini belgilab qo'yishi lozim.

Tahlil maqsadlari kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosati muvofiqligini ta'minlash va kredit

hujjatlarini rasmiylashtirish tadbiri, moliyaviy tahlil, garovni rasmiylashtirish va baholash, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash, qonunchilik me'yorlariga rioya qilish.

2.13. Bank Boshqaruvi va Kengashiga taqdim etiladigan hisobotlar

Kredit siyosati bank xizmatlari va bo'linmalari tomonidan Bank Boshqaruvi va Kengashiga kreditlashning turli jihatlari bo'yicha topshiriladigan hamda kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotlar turi va davriyligini belgilashi lozim.

Hisobotlar filiallar va bank bo'yicha umuman kreditlash vositalari va yo'nalishlariga qarab tavakkalchiliklarni baholash uchun boshqarishning turli darajalariga moslashtirilgan hamda batafsil yoritilgan bo'lishi kerak.

Mazkur Nizomning amalga kiritilishi munosabati bilan 1999 yil 11 fevralda Adliya vazirligida 627-raqam bilan davlat ro'yxatiga olingan Markaziy bankning 1998 yil 9 noyabrdagi 429-sonli "Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida nizom"i o'z kuchini yo'qotadi.

**Nizomga
ILOVA**

AV 14.05.2019 y. 905-5-son bilan ro'yxatga olingan MB Boshqaruvining Qaroriga muvofiq kiritilgan ilova

Iste'mol kreditlari va qarzlarning to'liq qiymatini hisoblash TARTIBI

Mazkur Tartib jismoniy shaxslar - iste'molchilarga (bundan buyon matnda qarz oluvchilar deb yuritiladi) berilgan iste'mol kreditlari va qarzlarning to'liq qiymatini hisoblash tartibini belgilaydi.

1. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

kredit yoki qarzning to'liq qiymati (bundan buyon matnda KTQ deb yuritiladi) - iste'mol krediti yoki qarz olish bilan bog'liq to'lovlarining haqqoniy, yillik va samarali hisoblashdagi foiz stavkasi hamda to'liq qiymati;

shartnoma - tijorat banklari va ularning filiallari (bundan buyon matnda banklar deb yuritiladi) tomonidan qarz oluvchilarga pul mablag'larini to'lovlilik, muddatlilik va qaytarishlilik shartlari asosida berilishini nazarda tutuvchi kredit yoki qarz shartnomasi.

2. KTQni hisoblab chiqishda qarz oluvchining quyidagi to'lovlari hisobga olinadi:

a) asosiy qarz va foizlar bo'yicha to'lovlar;

b) bank foydasiga amalga oshiriladigan to'lovlar - agar bunday to'lovlar shartnoma shartlariga muvofiq qarz oluvchining majburiyatlariga kirs va/yoki kredit yoki qarz berilishi bunday to'lovlarni amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lsa;

v) uchinchi shaxslar foydasiga amalga oshiriladigan to'lovlar, agar bunday to'lovlar shartnoma shartlariga muvofiq qarz oluvchining majburiyatlariga kirs, shu jumladan quyidagi to'lovlar:

sug'urta tashkiloti foydasiga amalga oshirilgan to'lovlar, agar sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yuzaga kelgan taqdirda naf oluvchi bo'lib bank hisoblansa;

qarz oluvchining majburiyatlari ta'minotiga qabul qilingan va garovga qo'yuvchining ixtiyorida qoladigan garov predmetini garov shartnomasi bo'yicha sug'urta qilishda qarz oluvchi tomonidan sug'urta tashkilotining foydasiga amalga oshirilgan to'lovlar;

qarz oluvchi tomonidan kafolat (kafillik) olish uchun kafolat beruvchiga (kafilga), shuningdek garovga topshirilayotgan mulkni baholash uchun baholovchi tashkilotga to'langan to'lovlar;

mijozlarni jalb qilish, ular tomonidan kredit yoki qarz olish uchun taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish, ushbu hujjatlarni bankka topshirish, kredit yoki qarzlarni qoplash hisobiga bank mijozlaridan to'lovlar va pul o'tkazmalarini qabul qilish bo'yicha bankka xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar (vositachilar) hisobiga amalga oshirilgan to'lovlar.

Bank tomonidan KTQ ko'rsatkichining hisob-kitobi shartnoma muddati tugagunga qadar mazkur bandeda nazarda tutilgan barcha to'lovlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

3. KTQ hisob-kitobiga quyidagilar kiritilmaydi:

a) qarz oluvchining uchinchi shaxslar foydasiga amalga oshiradigan to'lovlari, mazkur Tartibning 2-bandida ko'rsatilgan to'lovlar bundan mustasno;

b) qarz oluvchining shartnoma shartlarini bajarilmasligi bilan bog'liq to'lovlari, shu jumladan neustoyka va boshqa turdagi jarimalar.

v) bank plastik kartalaridan foydalangan holda berilgan kreditlar (qarzar) bo'yicha to'lovlar, xususan:

valyuta hisobvarag'idan (ajratilgan kredit valyutasidan) farqli o'laroq, boshqa valyutada amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha undirilgan komissiyalar;

bank kartasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq komissiyalar;

kredit (qarz) summalarini bankomatlardan foydalangan holda naqd pulda olganligi uchun to'langan komissiyalar.

4. Banklar quyidagi hollarda KTQni hisoblab chiqishlari shart:

a) shartnoma tuzilganda;

b) kredit yoki qarz olish istagini bildirgan qarz oluvchilarga kredit yoki qarz olish shartlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish vaqtida. Agar ma'lumotlar taqdim etish vaqtida mazkur Tartibning 2-bandida nazarda tutilgan ayrim to'lovlar miqdorini aniqlash imkoni bo'lmasa, u holda bank tomonidan unga ma'lum bo'lgan shu turdagi to'lovlarga amal qilishi hamda kredit yoki qarz olish istagini bildirgan qarz oluvchilarga shu to'lovlarning manbalarini oshkor qilishi lozim (masalan, KTQni hisoblashda tariflaridan foydalanilgan sug'urta kompaniyasining nomi va boshqalar).

5. KTQni hisoblashda qarz oluvchining kredit yoki qarz bo'yicha amalga oshirib bo'lgan to'lovlari ular haqiqatda to'langan vaqtda, kelajakda amalga oshiradigan to'lovlari esa, shartnoma tuzilgan sanada ma'lum bo'lgan kredit yoki qarz berish shartlariga asosan to'lovlarni to'lash jadvali bo'yicha hisobga olinadi.

Agar garov predmetini sug'urtalanishi shartnoma tuzilgan sanadan keyin amalga oshiriladigan bo'lsa, u holda bank qarz oluvchidan sug'urta kompaniyasiga amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan to'lov summasini aniqlashi va shu summadan kelib chiqqan holda KTQni hisoblab chiqishi shart.

6. Agar kredit yoki qarzning foiz stavkasi bazaviy ko'rsatkichlarga (Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, inflatsiya darajasi va boshqalar) bog'langan bo'lsa, u holda bank KTQni hisoblashda shu kundagi bazaviy ko'rsatkichlarning miqdoridan foydalanadi.

7. Banklar KTQni dasturiy vositalaridan foydalangan holda hisoblaydi. Bunda, Microsoft EXCEL dasturining CHISTVNDOX funksiyasidan foydalanish tavsiya etiladi (agar Microsoft EXCELning versiyasi ingliz tilida bo'lsa, u holda XIRR funksiyasi).

8. Banklar o'zlarining rasmiy veb say-saytlarida potensial qarz oluvchilarga KTQni mustaqil hisoblab chiqish imkoniyatini yaratib berishlari lozim. Bunda banklar KTQning hisob-kitob tartibini va uni hisoblab chiqishdagi to'lovlarning ro'yxatini oshkor qilishlari kerak.

9. KTQni hisoblashda verguldan keyin bir belgigacha yaxlit qilib hisoblanadi. Agar verguldan keyingi ikkinchi belgi "5" ga teng va undan yuqori bo'lsa, u holda ikkinchi belgi bir birlikka oshiriladi.

Masalan: KTQ ko'rsatkichi 18,66 ni tashkil qildi. U yaxlit qilib hisoblangach - 18,7 hosil bo'ladi.

10. Banklar KTQning miqdorini qarz oluvchilar bilan tuziladigan shartnomalarda ko'rsatishlari shart. KTQ miqdori shartnomaning birinchi varag'ining o'ng yuqori burchagida, kvadrat shakldagi ramka ichiga, oq fonda qora rang bilan, 16 o'lchamdan kam bo'lmagan yaxshi o'qiladigan shrift bilan, raqam va so'zlar bilan yoziladi.

11. Banklar qarzdorga KTQ miqdori to'g'risidagi ma'lumot bilan birga, shartnoma tuzish paytida uning mutlaq qiymatini, ya'ni kredit yoki qarzning asosiy qiymati, foizlari, komission va boshqa to'lovlar, shu jumladan amaldagi ta'riflar bo'yicha uchinchi shaxs foydasiga to'lanadigan to'lovlarni, agar bunday to'lovlar qarzdorning majburiyati bo'yicha shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan bo'lsa, ularni alohida ko'rsatgan holda yozma ma'lumot taqdim etadi.

12. Banklar ommaviy axborot vositalari orqali kredit yoki qarz to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilganlarida, ushbu e'londa bankka murojaat etilganida mijozlarga kredit yoki qarz olish bilan bog'liq KTQni hisoblab berilishi haqida axborot berishlari lozim.

